



MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MANTIQUIY BUZILISHLAR VA ULARNING NAZARIY ASOSLARI.

Ro'ziyev Adhamjon Abdurashid o'g'li

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, magistratura bo'limi, o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishing 2-bosqich magistranti*

*"Badiiy matnlardagi mantiqiy buzilishlarning nazariy-metodologik asoslari"
mavzusiga aqloqador maqolasi.*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin adabiy jarayonda kuzatilgan mantiqiy buzilishlarmasalasi o'rganiladi. Mustaqillik davri adabiyotida badiiy erkinlikning kuchayishi, yangi estetik tamoyillarning shakllanishi, postmodernistik tafakkurning kengayishi, ayrim asarlarda kompozitsion, psixologik, vaqt-makon, sabab-oqibat va badiiy tasvir izchilligida mantiqiy nomuvofiqliklarni yuzaga keltirgani ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, mantiqiy buzilishlarning asosiy ko'rinishlari, ularning paydo bo'lish sabablari hamda o'quvchi idrokiga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot davomida adabiy jarayonning umumiy xususiyatlari, yozuvchilarning badiiy izlanishlari va estetik tajribalari asosida masalaga nazariy yondashuv bildiriladi.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgan yildan boshlab adabiyot va adabiyotshunoslik sohalari yangi davr bosqichiga kirdi. Bu davrda badiiy ijod jarayonida mafkuraviy cheklovlarning bekor qilinishi, ijodkor tafakkurining erkinlashuvi, yozuvchining o'z ichki olami va milliy o'zlikka qaratilgan e'tiborining kuchayishi fundamental o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Avvalgi davrlarda siyosiy talablar, mafkuraviy buyurtmalar va tsenzura badiiy matnning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa, mustaqillikdan keyin yozuvchilar o'zlarining ichki pozitsiyasi, estetik qarashi va badiiy idealiga tayanib ijod qila boshlaydilar.

Adabiy jarayonning erkinlashuvi yangi shakl va uslublarning paydo bo'lishiga g'oya va mazmunning kengayishiga, yozuvchi uchun cheklanmagan mavzu doirasining ochilishiga olib keldi. Ayniqsa, postmodernistik tafakkurning kirib kelishi tasvirning bo'laklanishi, vaqt va makonning izchillikdan chiqishi, psixologik kechinmalarning oqim sifatida ifodalanishi kabi holatlarni kuchaytirdi. Bu holatlar ko'pincha badiiy tajribaning natijasi sifatida baholansa-da, ba'zan asarlar strukturasida mantiqiy izchillikning buzilishiga ham sabab bo'lmoqda.

Ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlaganidek(Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, N.Rahmon, U.Normatov va boshqalar) , mustaqillik davrida badiiy tafakkurning erkinlashuvi tabiiy jarayon bo'lsa-da, bu erkinlik ba'zan asar kompozitsiyasining izchilligi, qahramon xarakteridagi motivlanish, vaqt va makon uyg'unligi kabi adabiyotning asosiy mantiqiy mezonlariga salbiy ta'sir qilgan.



Maqolaning dolzarbligi shundaki, mustaqillik davri adabiyotida kuzatilayotgan mantiqiy buzilishlar hali to'liq ilmiy tizimga solinmagan. Ular ko'pincha "postmodern xususiyat", "tajriba", "yozuvchining uslubiy tanlovi" sifatida baholanishi mumkin. Ammo mantiqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati estetik tajribaning natijasi bo'lsa-da, badiiy matnning yaxlitligini susaytiradi. Mazkur tadqiqotda ham ana shunday buzilishlarning mohiyatini ochib berish, ularning turlarini tasniflash hamda sabablari haqida ilmiy xulosalar chiqarishni maqsad qiladi.

Mustaqillik davri adabiyotining umumiy xususiyatlari

Yozuvchi mavzuni e'erkin tanlaydi, badiiy tasvirning shakli va uslubini mustaqil belgilaydi. Natijada eksperimental proza, esse, falsafiy nasr, ramziy va metaforik asarlar ko'paydi. Qahramon ko'proq ichki kechinmalar, ruhiy kurashlar orqali ochiladi. Bu esa psixologik tasvirning murakkablashuviga olib keladi. Bundan tashqari, postmodernistik yondashuvning kuchayishini ham ta'kidlasak bo'ladi, fragmentarlik intertekstuality, ramziylik, vaqtning bo'linishi kabi tamoyillar ko'p qo'llana boshladi. Kompozitsiyada ham, syujetning bo'laklanishi, epizodlar o'rtasidagi aloqaning sustlashuvi ko'p uchraydi. Kompozitsion mantiq buzilishi, asar bo'laklarga parchalangan. Ba'zan epizodlar o'zaro bog'lanmagan bo'ladi. Qahramonlarning ruhiy holar o'z-o'zidan o'zgarib ketadi. Ruhiy transformatsiya uchun voqea, ichki monolog yoki tashqi omillar yetarlicha berilmagan. Qahramonning xatti-harakati uning oldingi xarakteri bilan mos kelmaydi. Shu sababdan psixologik motiv yo'qligi sababli qahramon ishonchliligini yo'qotadi.

Voqealar mantiqiy izchilliksiz rivojlanadi, metaforalar mantiqsiz yoki mos kelmaydigan joylarga qo'llaniladi. Qahramonning ruhiy holati izohlanmasdan o'zgaradi-bu "motiv izchilligi"ning buzilishi sanaladi. Yozuvchi yangi shakl izlaydi, lekin har doim ham mantiqiy kompozitsiani ushlab qolmaydi.

Endi, qisqacha mustaqillik davri adabiyotidan mantiqiy buzilishga uchragan ijodkor va asarlarining adabiy tahlilini qilib ketamiz. Masalan, isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarida metaforik tasvirlar haddan oshib ketgani sababli voqeliklar zidlanishi kuzatiladi.

Misol qilib, qahramonning "soyasi bilan gaplashishi" bir joyda ramziy o'lim timsoli sifatida beriladi, boshqa epizodda esa bu "ruhiy kasallik alomati" sifatida talqin etilgan.

Shu jihatiga ko'ra ushbu joyida ramziy obrazning funksiyasi buzilgan, izchil emas. Bir timsol bir necha ma'no yukiga bo'linib ketgan, kompozitsion mantiq buzilgan. Bundan tashqari, Asqar Mahkamning "Tushlar vodiysi" asarini ham ko'zdan kechirganda, voqealarning ba'zan haqiqiy dunyo bo'lishiga qaramay muallif ular o'rtasida aniq belgi qo'ymagan.

Natijada o'quvchi ba'zi sahnalarda qaysi qatlamda ekanini ajrata olmay qoladi. Bu -mantiqiy vaqt va makon o'qi buzilishi deyiladi. Xurshid Do'stmuhammadning "Odamlar orasida" asarida ham qahramon nutqi va muallif nutqining bir-biriga aralashib ketishi kabi holatlar kuzatiladi. Ba'zi parchalarida muallifning falsafiy munosabati qahramonning bevosita nutqi sifatida berilgan.



Masalan, obrazning kundalik fikrlashi bilan muallifning jamiyat haqidagi umumiy hukmi bir xil sintaktik ohangda ketadi. Ushbu holatga adabiy tomonlama baho beradigan bo'lsak, bu subyekt pozitsiyasining buzilishi hisoblanadi. Ya'ni "Kim gapiryapti?", "Kim fikr bildiriyapti?". Bu aniq belgilanmagani sababli matnda epistemik noaniqlik, ya'ni biluvchining o'rni aniqlanmay qoladi. Natijada matnning mantiqiy musiqasi buziladi.

Erkin A'zamning "Shovqin" hikoyasida ham konfliktning kech paydo bo'lishi va erta yakunlanib qolishi kabi buzilishlar bo'lganini ko'ramiz. Asarda asosiy ziddiyat – ichki qarama-qarshilik bo'lsa-da, u hikoya oxiriga yaqin paydo bo'ladi, lekin tezda tugaydi. O'quvchi konfliktning pishib yetilmasligini sezadi. Bu kompozitsion mantig'ining buzilishidir, hikoya janri uchun esa konflikt quyidagi talablarga mos bo'lishi kerak: erta paydo bo'lishi, o'sishi, kulminatsiya, yechimga ega bo'lishi kabi. Nazar Eshonqulning "Qasos" hikoyasida qahramon xarakteri motivatsiyasining yetarli asoslanmaganligini ko'ramiz.

Boshlang'ich qismda qahramonning tinch tabiatli, yumshoq odam ekani tasvirlanadi. Ammo syujet o'rtasida u kutilmaganda juda keskin, agressiv qaror qabul qiladi- lekin bunga psixologik izoh yo'q. Qahramonning keskin qarori : kechmish travmasi, yangi kutilmagan tashqi ta'sir, ichki ziddiyatning pishishi kabi jarayonlar bo'lsa, muallif esa bularga e'tibor bermaydi, natijada xarakterning o'sish chizig'i uzilgan. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanida esa falsafiy fikrlarning syujetdan ustun kelib, voqeani to'xtatib qo'yganini ko'rishimiz mumkin. Muallif mavjudlik haqidagi falsafiy mulohazalarni uzun paragraf ko'rinishida beradi, ba'zan ular voqea harakatini butunlay to'xtatadi. Bu syujet dinamizmining buzilishi hisoblanadi. Syujet liniyasi badiiy asarda asosiy harakat bo'lsa ham, falsafiy tafakkur uni bosib ketganda : voqea yangilanmaydi, o'quvchi diqqatini yo'qotadi, mantiqiy o'sish sekinlashadi. Bu modern adabiyotning xos jihati bo'lsa-da, tahlil nuqtayi nazarida kompozitsion nomutanosiblik hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri adabiyotida kuzatiladigan mantiqiy buzilishlar asosan badiiy tafakkurning erkinlashuvi, yangi janr va uslublarning paydo bo'lishi, postmodernistik yondashuvlarning kuchayishi bilan bo'liq. Adabiy jarayonning tabiiy rivoji sifatida qaralganda, bunday buzilishlar ijodkorning yangilikka intilishi, tajriba o'tkazishi, badiiy imkoniyatlarni kengaytirishga urinishi natijasi ekani ko'rinadi. Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatadiki, mantiqiy izchillikning buzilishi ba'zan asar badiiy qimmatini kamaytiradi : kompozitsiya bo'linib ketadi, qahranon xarakteri ishonchliligini yo'qotadi, o'quvchida tushunmovchiliklar paydo bo'ladi. Bunday holatlar ilmiy nuqtai nazardan "mantiqiy buzilish" sifatida baholanadi. Bundan kelib chiqadiki, mantiqiy buzilishlar ikki xil tabiatga ega:

1. Ijobiy-estetik buzilish- badiiy maqsadga xizmat qiladi (postmodern shakllar).
2. Salbiy-struktural buzilish- asarning ichki izchilligini buzadi.



Mustaqillik davri adabiyoti o'zining mazmuniy, g'oyaviy va kompozitsion boyligi bilan farqlansa-da, ushbu masalalarni ilmiy asosda o'rganish adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalarni biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev Q. "Hozirgi o'zbek adabiyoti".
2. Qosimov B. "Mustaqillik davri adabiy jarayoni".
3. Rasulov B. "Adabiyotshunoslik nazariyasi".
4. Rahmon N. "Postmodernizm va o'zbek adabiyoti".
5. Karimov I. "Asarlar to'plami".
6. Normatov U. "Zamon va adabiyot".
7. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi maqolalari (1991–2020).
8. WWW.google scholar sayti
9. Nat.lib.uz sayti